TALABALARDA INTELLEKTUAL-IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUMI

Xalmuratova Jumagul Gaybullayevna
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti
«Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat» kafedrasi dotsenti
Telefon raqam: +99893-594-95-78

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarda intellektual ijodiy qobiliyatni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan bo‘lib, talabalarda kasbiy salohiyatini oshirishning qisqacha bayoni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: intellectual, texnologiya, kreativ, didaktik metodlar, metodik tavsiya.

Dunyo miqyosida o’quv jarayoni nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyotda qo’llash ko’nikmalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari asosida talabalarda mustaqil ta’lim olish malakalarini shakllantirish bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo’nalishda jumladan, oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar tatbig‘iga asoslangan dars tahlili va uning metodikasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada o’qituvchi-murabbiy talaba shaxsining ma’naviy-axloqiy dunyosini o’zgartirish, unga pedagogik ta’sir ko’rsatish orqali undagi bor imkoniyat va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Yoshlarni kasbga o’rgatish va uni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun o’z hissasini qo’shib yashashi va shu orqali jamiyatda o’zligini namoyon etishi, ya’ni shaxsning kamol topishi, bu borada talaba shaxsining o’zini-o’zi ma’naviy-kasbiy tarbiyalash texnologiyasi har qachongidan dolzarb hisoblanib, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo’shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish, kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimida har tomonlama yetuk va ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasi ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o‘zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo‘naltirilganligini ta’minlash ehtiyojini yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan oliy ta’limga jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish, modernizatsiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan yangi, yuqori talablarni qo‘ymoqda... » [1, B.2]. «Milliy tafakkur

salohiyatiga ega bo‘lgan iste’dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratishimiz lozim» kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [2, B.4]. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, ta’lim jarayonini individuallashtirish, integratsiyalash va uning samaradorligini ta’minlash orqali shaxsning intellektual salohiyatini oshirish, bilim egallashning mustaqil, faol ijodiy metod va usullarini ta’minlash muammosi intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ijod - bu subektning tafakkuri, aqli va idroki nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi, yinaltiruvchi, shu bilan birga ijtimoiy amaliyotga muvofiq ravishda muttasil izgarib boruvchi obektiv olamning subekt ongidagi faol in’ikosidir.

Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligi asoslovchi tajriba-sinovda o‘z tasdig‘ini topdi.

Talabalarning intellektual salohiyati ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasi bo‘lib, ijodiy qobiliyatlarni, ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni, yangilik, o‘ziga xoslik va o‘ziga xoslik bo‘lgan intellektual mahsulotlarni yaratish zarurligini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim texnologiyalar bo‘yicha ilmiy metodik tavsiyalarni keltirishdan avval uning o‘quv jarayonidagi in’ikosiga oid nazariy ma’lumotlarni keltirib o‘tish joiz deb bildik. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat ta’lim mazmunini rivojlantirish, balki talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda qo‘l keladi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim jarayonida rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlikdagi, dasturli, blok-modulli, shaxsga yo‘naltirilgan, o‘yinli va axborot texnologiyalar keng qo‘llab kelinmoqda. Har qanday ta’lim texnologiyasi uzluksiz ta’limning qaysi bo‘g‘inida qo‘llanmasin, uning markazida ta’lim oluvchi shaxsi va uning qiziqishlari, ehtiyojlari ko‘zda tutilishi kerak. Shuningdek, intellekt va ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari tizimlashtirildi. Ushbu texnologiyalarning maqsadi talabalarda kasbiy salohiyat rivojlantirish, kelajak faoliyati haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda shaxsiy sifatlarini tarbiyalashdan iborat [3, B.4].

Intellektual qobiliyatlar-bu shaxsning ta’sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to‘g‘risida keng ma’lumotlarga ega bo‘lishdir. Shunindek, tafakkur o‘zgaruvchanligi va tezkorligi, mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o‘z fikriga ega bo‘lish bilan namoyon bo‘ladi.

Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta’limning amaliy va nazariy shakllarini innovatsion didaktik metodlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi natijada zamonaviy malakali shaxsni shakllantirishga erishiladi.

Shunday qilib, talabalar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish davlat ahamiyatidagi va ijtimoiy-pedagogik muammo bo‘lib hisoblanadi. Talabalada asosiy kreativ–

intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish–hozirgi zamon ta’lim tizimida birinchi darajali vazifadir.

Yuksak intellektual salohiyatli zamonaviy bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimidagi integratsion jarayonlarni tahlili natijasida kompetentlik yondashuvi asosidagi integrativ kurslarni ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ushbu jarayonning belgilangan natijalarga erishilishini ta’minlaydi. Integratsion jarayonning asosi sifatida kasbiy kompetensiyalar tanlanib, ular bitta yoki bir nechta integrativ kurslar doirasida shakllantirilishi mumkin.

Binobarin, yangi avlod shaxsining kreativ–ijodiy rivojlanishi, unda yuksak idrok qilish faolligi bilan intellektual-ijodiy singari shunday muhim qobiliyatlarning rivojlanishi – zamon talabi, o‘quv, hayotiy, mehnatga oid va sotsial-ijtimoiy muvaffaqiyatning asosidir [4, B.17]. Yuqori bosich Talabalarining muntazam ravishda doimiy-intellektual ijodiy jihatdan rivojlantirilishi maqsad qilib qo‘yilmog‘i lozim. Talabalarning, ayniqsa, intellektual-ijodiy qobiliyatlar sohasida kreativini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan – tizimi, mazmuni, shakllari, texnologiyalari, metodlari, usullari, uslublari va vositalari zarur.

Bo’lajak mutaxassislarning intellektual salohiyatli oshirish, shuningdek, talaba shaxsini yuksaltirish, mantiqiy fikrlashga undovchi jarayonlar va imkoniyatlarni ta’lim amaliyotida keng qo’llashda integrativ yondashuvlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ular talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga nisbatan o‘z-ijodiy yondashuviga ega bo‘lishlari lozim. Ta’lim jarayonlarida talabalarlarning ijodiy fikrlashi, ijodiy tasavvuri tegishli darajasini rivojlantirishni ta’minlashga, ijodkorlik metodlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonda qo‘llanilishiga yetarli vaqt ajratilmog‘i kerak [5, B.8].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida. PF-60-son. 28.01.2022// https://lex.uz/docs/5841063

2.Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2017, 48-b.

3.Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo‘naltirish asoslari. - Toshkent: Fan, 2010. - 128 b.

4.Xekxauzen X. Motivasiya деyatelnost.-2-e izд.- SPБ. : Piter - Moskva: Smisl, 2003. - 860 s.

5.Safarova R. O‘quvchilarning bilim sifatini oshirish // Xalq ta’limi. 2005. №1. - B.14-19.